

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№11

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 98 sahifa.

2025-yil, noyabr

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

BANK AKTIVLARI VA PASSIVLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	34
Safarov Sanjar Ravshan o'g'li	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI.....	38
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
HUDUDIIY XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA MENEJMENT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYA MODELI	43
Maxmudova Nozimaxon Baxriddinxonovna	
DAVLATNING BUDJET SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	50
A.A. Ismailov	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINING MEXANIZMINI SAMARALI TASHKILLASHTIRISHDA MOLIYAVIY MANBALARNI SHAKLLANTIRISHNI YO'NALISHLARI	56
Mansurov Mansur Alisherovich	
ANTIKRIZISLI BOSHQARUV TIZIMLARIDA RANGLI SIGNAL MEXANIZMLARINING FUNKSIYALARI.....	61
Aliqulov Aziz Haydarjonovich	
XODIMLARNI MOTIVATSIYALASHNING XALQARO MODELLARINI O'ZBEKISTON KORXONALARIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	66
Yormamatov Qodirjon Juraqulovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT OMILLARI VA ULARNING QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	71
Yaxshiyev Shahzod Sherali o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI BO'YICHA XORIJ TAJIRIBALARI	78
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA RIVOJLANGAN VA RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR TAJIRIBASI	84
Aripov Abdulaziz Sakijonovich	
YASHIL ENERGETIKA RIVOJLANISHINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	89
Bobokulova Muhabbat Mahammadiyeva	
ELEKTRON TO'LOVLAR VA POS TIZIMLARI — KICHIK BIZNESDA SAMARASI VA XAVFLARI	93
To'liqinov Dilshodxo'ja Olim o'g'li	



ELEKTRON TO'LOVLAR VA POS TIZIMLARI — KICHIK BIZNESDA SAMARASI VA XAVFLARI

To'liqinov Dilshodxo'ja Olim o'g'li

Mustaqil tadqiqotchi

Email: d.tolqinov@tsue.uz

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada kichik biznes subyektlarida elektron to'lov tizimlari va POS (Point of Sale) texnologiyalarining joriy etilishi, ularning iqtisodiy samaradorlikka, moliyaviy boshqaruvga va raqamli iqtisodiyot rivojiga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda elektron to'lov infratuzilmasining afzalliklari – tezkorlik, shaffoflik, tranzaksiya aniqligi va soliq tushumlariga ijobiy ta'siri bilan bir qatorda, mavjud xavf omillari – kiberxavfsizlik tahdidlari, texnik nosozliklar, tranzaksiya komissiyalari hamda shaxsiy ma'lumotlarning himoyasiga oid muammolar chuqur o'rganilgan. Maqolada O'zbekiston Respublikasining so'nggi yillardagi raqamli islohotlari, Markaziy bank ma'lumotlari hamda xalqaro tajriba asosida kichik biznes uchun elektron to'lov tizimlaridan samarali va xavfsiz foydalanish mexanizmlari ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari kichik biznesda raqamli moliyaviy texnologiyalarni oqilona joriy etish orqali iqtisodiy o'sishni tezlashtirish, soliq tushumlarini oshirish hamda moliyaviy shaffoflikni kuchaytirish mumkinligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: elektron to'lov tizimlari, POS terminal, kichik biznes, raqamli iqtisodiyot, kiberxavfsizlik, tranzaksiya, moliyaviy shaffoflik, iqtisodiy samaradorlik, mobil to'lovlar, raqamli transformatsiya, firibgarlik xavfi, texnik nosozliklar, soliq tushumlari, blokcheyn texnologiyasi, biometrik autentifikatsiya, raqamli savodxonlik, mobil ilovalar, iqtisodiy barqarorlik.

Abstract. This scientific article analyzes the implementation of electronic payment systems and POS (Point of Sale) technologies in small business entities and their impact on economic efficiency, financial management, and the development of the digital economy. The study examines the advantages of digital payment infrastructure—speed, transparency, transactional accuracy, and positive fiscal effects—alongside existing risk factors such as cybersecurity threats, technical failures, transaction fees, and issues related to personal data protection. Based on Uzbekistan's recent digital reforms, Central Bank statistics, and international experience, the article develops mechanisms for the effective and secure use of electronic payment systems by small enterprises. The results demonstrate that the rational adoption of digital financial technologies in small business can accelerate economic growth, increase tax revenues, and enhance financial transparency.

Key words: electronic payment systems, POS terminal, small business, digital economy, cybersecurity, transaction, financial transparency, economic efficiency, mobile payments, digital transformation, fraud risk, technical failures, tax revenues, blockchain technology, biometric authentication, digital literacy, mobile applications, economic stability.

Аннотация. В данной научной статье рассматривается внедрение электронных платежных систем и технологий POS (Point of Sale) в деятельности субъектов малого бизнеса, а также их влияние на экономическую эффективность, финансовое управление и развитие цифровой экономики. В исследовании детально проанализированы преимущества электронной платежной инфраструктуры — оперативность, прозрачность, точность транзакций и положительное влияние на налоговые поступления, а также выявлены существующие риски — угрозы кибербезопасности, технические сбои, комиссии за транзакции и проблемы защиты персональных данных. На основе анализа цифровых реформ последних лет в Республике Узбекистан, данных Центрального банка и международного опыта разработаны механизмы эффективного и безопасного использования электронных платежных систем в малом бизнесе. Результаты исследования показывают, что рациональное внедрение цифровых финансовых технологий способствует ускорению экономического роста, увеличению налоговых поступлений и укреплению финансовой прозрачности.

Ключевые слова: электронные платежные системы, POS-терминал, малый бизнес, цифровая экономика, кибербезопасность, транзакция, финансовая прозрачность, экономическая эффективность, мобильные платежи, цифровая трансформация, риск мошенничества, технические сбои, налоговые поступления, технология блокчейн, биометрическая аутентификация, цифровая грамотность, мобильные приложения, экономическая устойчивость.



KIRISH

So'nggi o'n yillikda dunyo miqyosida iqtisodiy tizimlarning raqamli transformatsiyasi tobora chuqurlashib bormoqda. Ayniqsa, kichik biznes subyektlari faoliyatida raqamli to'lov tizimlari, elektron tijorat platformalari va POS (Point of Sale) texnologiyalarining keng joriy etilishi iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim omiliga aylandi. Elektron to'lov tizimlari orqali tovar va xizmatlar uchun hisob-kitoblarning tezkor, ishonchli va xavfsiz amalga oshirilishi korxonalar uchun nafaqat moliyaviy qulaylik yaratadi, balki ularning raqobatbardoshligini oshiradi, moliyaviy shaffoflikni ta'minlaydi hamda davlat byudjetiga tushumlar hajmini ko'paytiradi.

Kichik biznes mamlakat iqtisodiyotining eng muhim tarkibiy qismi sifatida barqaror iqtisodiy o'sish, bandlikni ta'minlash va innovatsion tashabbuslarni rivojlantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, so'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida kichik biznes faoliyatini qo'llab-quvvatlash, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish va raqamli iqtisodiyot infratuzilmasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PQ-4851-sonli "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ushbu sohada tub burilish yasadi. Mazkur hujjatga muvofiq, elektron to'lov tizimlarini modernizatsiya qilish, POS terminallar tarmog'ini kengaytirish, mobil to'lov platformalarini rivojlantirish va aholining raqamli savodxonligini oshirish bo'yicha keng ko'lamli vazifalar belgilandi. Qarorda shuningdek, bank sektorida raqamli xizmatlarni joriy etish orqali iqtisodiy faoliyatni soddalashtirish, tranzaksiya tezligini oshirish va kiberxavfsizlikni mustahkamlash ustuvor yo'nalish sifatida qayd etilgan.

Raqamli to'lov tizimlari kichik biznes faoliyatida moliyaviy boshqaruvni tubdan o'zgartiruvchi omil bo'lib, ular naqd pulsiz iqtisodiyotga o'tishni tezlashtiradi, soliq bazasini kengaytiradi va yashirin iqtisodiyot hajmini qisqartiradi. Shu bilan birga, POS terminallar orqali amalga oshiriladigan to'lovlar kichik korxonalarning mijozlarga xizmat ko'rsatish tezligini oshirib, savdo hajmini o'rtacha 10–15 foizga ko'paytirganligi aniqlangan (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari, 2024-yil). Elektron to'lov infratuzilmasining joriy etilishi, ayniqsa, chakana savdo, umumiy ovqatlanish, transport va xizmat ko'rsatish tarmoqlarida sezilarli ijobiy natijalar bermoqda.

Shu bilan birga, elektron to'lov tizimlarining jadal rivojlanishi bir qator yangi xavf omillarini ham yuzaga keltirmoqda. Jumladan, kiberxavfsizlik bilan bog'liq tahdidlar, texnik nosozliklar, tranzaksiya jarayonlaridagi kechikishlar va ma'lumotlar bazasining yetarli darajada himoyalanganligi kichik biznes uchun muhim muammo bo'lib qolmoqda. So'nggi yillarda Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda raqamli to'lovlar bilan bog'liq fribgarlik holatlari 4,8 mingta holatni tashkil etgan bo'lib, bu 2022-yilga nisbatan 1,6 baravar ko'pdir. Mazkur holat kichik biznes egalari orasida axborot xavfsizligi madaniyatini oshirish zaruratini ko'rsatmoqda.

Elektron to'lovlar tizimining afzalliklari va xavflarini ilmiy tahlil qilish kichik biznesda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun dolzarb masalalardan biridir. Ular orqali korxonalar moliyaviy oqimlarni kuzatish, tovar aylanmasini tahlil qilish, marketing strategiyalarini shakllantirish va mijozlar xatti-harakatlarini o'rganish imkoniga ega bo'ladi. Shu jihatdan, elektron to'lov tizimlari faqat to'lov vositasi emas, balki iqtisodiy tahlil va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim axborot manbai sifatida ham namoyon bo'lmoqda.

Raqamli iqtisodiyotning kengayishi O'zbekistonda yangi turdagi to'lov texnologiyalarini — mobil ilovalar, QR-kod asosidagi to'lovlar, onlayn bank tizimlari va elektron hamyonlarni — keng joriy etishni taqozo etmoqda. Bu jarayon "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida ham o'z ifodasini topgan bo'lib, unda elektron tijorat, to'lov tizimlari va moliyaviy xizmatlarning integratsiyasini ta'minlash milliy iqtisodiy siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.²

Shunday qilib, kichik biznesda elektron to'lov tizimlari va POS texnologiyalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, ularning xavfsizlik mexanizmlarini kuchaytirish, kiberxavfsizlik infratuzilmasini rivojlantirish va raqamli savodxonlikni oshirish zarur. Mazkur tadqiqot aynan shu omillarni kompleks ilmiy tahlil qilish, ularning iqtisodiy va texnologik oqibatlarini baholash hamda kichik biznes uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

Natijada, elektron to'lov tizimlarining oqilona joriy etilishi kichik biznes subyektlarining iqtisodiy samaradorligini oshiradi, moliyaviy nazoratni mustahkamlaydi, soliq intizomini yaxshilaydi hamda raqamli iqtisodiyotning barqaror o'sishiga xizmat qiladi. Shu boisdan, ushbu maqola kichik biznesda elektron to'lovlar va POS tizimlarining joriy etilishi, ulardan foydalanish samarasi va xavflarini ilmiy asosda o'rganishga bag'ishlangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi o'n yillikda raqamli moliyaviy texnologiyalar, xususan, elektron to'lov tizimlari va POS (Point of Sale) texnologiyalari kichik biznes faoliyatining samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida ko'rilmog'da.

1 Manba: lex.uz, PQ-4851, 05.10.2020

2 Manba: lex.uz, PF-6079, 05.10.2020



Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, raqamli to'lovlar iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi, soliq tushumlarini oshiradi va moliyaviy shaffoflikni kuchaytiradi. Masalan, S. N. Singh va P. Mishra [1] o'z tadqiqotlarida Hindiston tajribasi asosida kichik korxonalarda raqamli to'lovlarni joriy etish savdo hajmini 20–25 foizga oshirganini aniqlagan. Shuningdek, A. M. Sahi, H. Khalid va A. Abbas [2] tomonidan ishlab chiqilgan TAM (Technology Acceptance Model) tahliliga ko'ra, foydalanuvchilarning "ishonch" va "foydalilikni qabul qilish" omillari raqamli to'lov texnologiyalarini ommalashtirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Yana bir muhim yo'nalish — elektron to'lovlar bilan bog'liq xavflarni baholashdir. R. Patil va K. Chauhan [3] o'z maqolasida kiberxavfsizlik, firibgarlik, texnik nosozliklar va ma'lumotlar sizib chiqishining kichik biznes rentabelligiga salbiy ta'sirini tahlil qilgan. T. W. Verhoef [4] esa Yevropa Ittifoqida elektron to'lov xavflarini kamaytirish uchun blokcheyn asosidagi autentifikatsiya mexanizmlarini taklif etgan. Shu bilan birga, BIS Working Paper No. 1196 [5] natijalari shuni ko'rsatadiki, elektron to'lovlar iqtisodiyotdagi norasmiy sektor ulushini 1,4 foizga qisqartirib, soliq bazasini kengaytirishga yordam beradi.

O'zbekiston olimlari ham bu yo'nalishda qator tadqiqotlar olib bormoqda. J. Valiyev va I. Kotane [6] raqamli to'lov tizimlarini takomillashtirishda huquqiy baza va kiberxavfsizlik choralari kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydi. A. Karimov [7] kichik biznesda elektron to'lovlar nafaqat savdo jarayonlarini tezlashtirishi, balki soliq intizomini yaxshilash va "soya iqtisodiyoti"ni qisqartirishda ham ijobiy rol o'ynashini ilmiy asoslagan. Shuningdek, N. Rasulova [8] O'zbekiston sharoitida mobil to'lov tizimlarining (Payme, Click, Uzum Pay) kichik korxonalarga keltirgan qulayliklarini o'rganib, ularning daromad barqarorligiga ta'sirini aniqlagan.

Bundan tashqari, S. Akhmedova [9] o'z tadqiqotida elektron to'lov infratuzilmasidagi kiberxavfsizlik tahdidlari sonining so'nggi yillarda 1,6 baravar oshganini ta'kidlaydi. M. Abdurahmonov [10] esa POS terminallar tarmog'ining kengayishi xizmat ko'rsatish sifatiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatishini, lekin tranzaksiya komissiyalari kichik biznes rentabelligini qisqartirayotganini ko'rsatgan.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, elektron to'lov tizimlarining iqtisodiy samaradorligi bilan bir qatorda, xavf omillari ham dolzarbdir. Xalqaro tajriba texnik va huquqiy mexanizmlarni takomillashtirishga e'tibor qaratgan bo'lsa, O'zbekiston sharoitida kiberxavfsizlik, raqamli savodxonlik va infratuzilmani modernizatsiya qilish ustuvor yo'nalishlardir. Shunday qilib, mavjud ilmiy adabiyotlar elektron to'lov tizimlarining kichik biznesda samarali joriy etilishi uchun kompleks yondashuv zarurligini ko'rsatmoqda — ya'ni iqtisodiy, texnik va huquqiy mexanizmlar bir-birini to'ldirgan holda ishlashi lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda kichik biznes subyektlarida elektron to'lov tizimlari va POS texnologiyalarining iqtisodiy samaradorligi hamda xavf omillarini baholash uchun kompleks ilmiy metodologiya qo'llanildi. Tadqiqot uslubiy jihatdan kombinatsiyalashgan (mixed-method) yondashuv asosida olib borilib, unda miqdoriy (quantitative) va sifat (qualitative) tahlil usullari uyg'unlashtirildi.

Miqdoriy tahlilda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Davlat statistika qo'mitasi va xalqaro tashkilotlar (BIS, World Bank) ma'lumotlaridan foydalanilib, 2020–2024-yillar oralig'idagi raqamli to'lov hajmlari, POS terminallar soni va kichik biznes subyektlarining daromad o'sishi o'rtasidagi bog'liqlik korrelyatsion va regressiya tahlili yordamida o'rganildi. Shuningdek, iqtisodiy samaradorlikni aniqlashda multiplikativ model va foydalilik indeksi metodlari qo'llanildi.

Sifat tahlili doirasida kichik biznes egalari va bank mutaxassislari bilan o'tkazilgan intervyular orqali elektron to'lov tizimlarining afzalliklari va xavflari (kiberxavfsizlik, texnik nosozliklar, komissiya to'lovlari) aniqlanib, SWOT-tahlil asosida guruhlashtirildi. Tadqiqot natijalari statistik ishonchlilikni ta'minlash maqsadida SPSS va Excel dasturlari orqali qayta ishlanib, ilmiy umumlashtirish va grafik tahlil usullari yordamida vizuallashtirildi.

Ushbu metodologiya kichik biznesda elektron to'lov tizimlarining iqtisodiy samarasi va xavf balansini aniqlash uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda kichik biznes subyektlari tomonidan elektron to'lov tizimlari va POS texnologiyalaridan foydalanish sezilarli darajada kengaydi. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda respublika bo'yicha elektron to'lovlar hajmi 540 trillion so'mdan oshgan bo'lib, bu 2022-yilga nisbatan 1,7 baravar ko'pdir. Ushbu o'sish, avvalo, kichik biznes subyektlarida POS terminallar sonining ortishi, mobil to'lov platformalarining (Payme, Click, Apelsin, Uzum Pay) ommalashuvi va raqamli xizmatlar tarmog'ining kengayishi bilan izohlanadi.

Elektron to'lov tizimlari kichik biznesning iqtisodiy faoliyatiga uch yo'nalishda ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda: birinchidan, savdo jarayonlarini tezlashtirib, to'lovlarni real vaqt rejimida amalga oshirish imkonini bermoqda; ikkinchidan, moliyaviy hisob-kitoblarning shaffofligini oshirib, soliqqa tortish tizimini takomillashtirmoqda;



uchinchidan, korxonalarda marketing va boshqaruv qarorlarini optimallashtirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar bazasini shakllantirmoqda.

Empirik tahlillar shuni ko'rsatdiki, raqamli to'lovlarni qabul qiluvchi kichik biznes korxonalarining o'rtacha savdo hajmi 12–15 foizga, mijozlar soni esa 20 foizga oshgan. Shu bilan birga, ularning tovar aylanmasi yanada barqarorlashgan, kesh oqimlarining aylanish tezligi esa o'rtacha 1,5 baravar yuqorilagan. Biroq bu jarayon bilan bir qatorda, elektron to'lov tizimlari bilan bog'liq xavf omillari ham kuchaymoqda. Xususan, 2024-yilda raqamli to'lovlarga oid firibgarlik holatlari soni 4,8 mingga yetgan, bu esa 2022-yilga nisbatan 60 foizga ko'pdir.³

Tahlil davomida aniqlanishicha, kichik biznesda elektron to'lov tizimlari iqtisodiy samaradorlikni oshirsa-da, xavf balansini boshqarish mexanizmlari yetarlicha shakllanmagan. Xodimlarning raqamli savodxonlik darajasi pastligi, kiberxavfsizlik siyosatlarining zaifligi va texnik xizmat ko'rsatishdagi kamchiliklar tranzaksiya xavfsizligini pasaytiradi. Shuningdek, ayrim to'lov tizimlaridagi yuqori komissiya to'lovlari (0,6–1,2 %) kichik korxonalarining sof foydasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Tadqiqotda korrelyatsion tahlil natijasida elektron to'lovlar hajmi bilan kichik biznes daromadlari o'rtasida $r = 0,82$ darajadagi ijobiy kuchli bog'liqlik aniqlangan. Bu raqamli to'lovlarning joriy etilishi kichik biznesning umumiy moliyaviy barqarorligiga bevosita ta'sir etayotganini tasdiqlaydi. Multiplikativ model asosida hisob-kitoblarga ko'ra, har bir 1 so'mlik elektron tranzaksiya iqtisodiyotda 1,6–1,7 so'mlik multiplikativ ta'sirni yuzaga keltirmoqda.

Shu bilan birga, xalqaro tajribalar bilan solishtirilganda O'zbekistonning natijalari mos tendensiyani ko'rsatadi. Masalan, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida kichik biznesda raqamli to'lov tizimlarini joriy etish natijasida naqd pulsiz to'lovlar ulushi 3 yil ichida 25 foizdan 65 foizgacha oshgan, shu orqali iqtisodiy o'sish sur'atlari 1,3 baravar tezlashgan.

Quyidagi jadvalda kichik biznes uchun elektron to'lov tizimlarining ijobiy va salbiy ta'sirlari tizimli tarzda keltirilgan.

1-jadval. Kichik biznes uchun elektron to'lov tizimlarining iqtisodiy samarasi va xavf omillari

Ko'rsatkichlar	Ijobiy ta'sir	Salbiy ta'sir (xavf omillari)
Moliyaviy nazorat	Shaffoflik va soliqqa tortish osonlashadi	Ma'lumotlar xavfsizligiga tahdid
Savdo hajmi va mijozlar oqimi	Xaridorlar soni va aylanma oshadi	Komissiya to'lovlari foydani kamaytiradi
Ish unumdorligi	Avtomatlashtirilgan hisob-kitob jarayonlari	Xodimlarning raqamli savodxonligi yetarli emas
Texnik jarayonlar	Tezkor hisob-kitob, mobil ilovalar orqali to'lovlar	Tarmoq uzilishlari yoki tizim nosozligi ehtimoli
Kiberxavfsizlik	Shaxsiy ma'lumotlar nazorat ostida bo'ladi	Fishing va xakerlik tahdidlari kuchayadi
Tadbirkorlik muhiti	Soliq intizomi va ishonch ortadi	Huquqiy baza va texnik xizmat ko'rsatish sustligi

Umuman olganda, tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, elektron to'lov tizimlarining kichik biznesdagi joriy etilishi iqtisodiy o'sish, shaffoflik va raqobatbardoshlikni oshiruvchi kuchli omil hisoblanadi. Ammo tizimning uzluksiz ishlashi va xavfsizlik darajasini ta'minlash uchun kiberxavfsizlik infratuzilmasini mustahkamlash, xodimlarni muntazam o'qitish, komissiya siyosatini optimallashtirish va texnik xizmat ko'rsatish tizimini yaxshilash zarur. Shu tarzda, elektron to'lovlar va POS texnologiyalari kichik biznesning raqamli transformatsiyasida barqaror iqtisodiy natijalarga erishishning kalit omiliga aylanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotning shakllanishi kichik biznes faoliyatining mazmun-mohiyatini tubdan o'zgartirib, moliyaviy boshqaruvda yangi texnologik yondashuvlarni talab qilmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, elektron to'lov tizimlari va POS texnologiyalarining joriy etilishi kichik biznes subyektlari uchun iqtisodiy samaradorlik, shaffoflik va boshqaruv intizomini kuchaytiruvchi asosiy omilga aylangan. Ushbu tizimlar orqali naqd pulsiz hisob-kitoblar hajmining ortishi natijasida soliq tushumlari ko'paymoqda, moliyaviy oqimlar nazorati kuchaymoqda va xizmat ko'rsatish sifati yaxshilanmoqda.

Elektron to'lov infratuzilmasining rivojlanishi, ayniqsa, savdo, transport va xizmat ko'rsatish tarmoqlarida kichik biznes faoliyatining barqarorligini mustahkamlab, mijozlar uchun qulay va tezkor to'lov imkoniyatlarini yaratmoqda. POS terminallar, mobil to'lov ilovalari va QR-kodli tizimlarning keng joriy etilishi natijasida nafaqat

3 Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki



savdo hajmi oshmoqda, balki iqtisodiy faoliyatning ochiqligi va raqobatbardoshligi ham ortib bormoqda. Shu bilan birga, raqamli to'lov tizimlarining rivojlanishi bilan bog'liq muammolarni ham e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi.

Xususan, kiberxavfsizlik tahdidlari, tranzaksiya firibgarliklari, tarmoq nosozliklari, yuqori komissiya to'lovlari va internet infratuzilmasining noturg'unligi kichik biznes uchun muhim xavf omillari bo'lib qolmoqda. Bu holat elektron to'lov tizimlaridan foydalanishda kompleks yondashuv — texnik, huquqiy va tashkiliy mexanizmlarni uyg'unlashtirish zarurligini taqozo etadi. Shuningdek, mavjud xavflarni kamaytirish uchun davlat siyosati, tijorat banklari va tadbirkorlar o'rtasida o'zaro hamkorlik mexanizmlarini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, elektron to'lov tizimlaridan samarali foydalanish uchun davlat tomonidan raqamli infratuzilmani rivojlantirish, bank xizmatlarini diversifikatsiya qilish, axborot xavfsizligini ta'minlash va raqamli savodxonlikni oshirish ustuvor yo'nalish hisoblanadi. O'zbekiston sharoitida ushbu yondashuvni quyidagi strategik yo'nalishlar orqali amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. Kiberxavfsizlik infratuzilmasini mustahkamlash — kichik biznes subyektlarini raqamli tahdidlardan himoya qiluvchi milliy platforma va texnik monitoring tizimlarini rivojlantirish.

2. Elektron to'lov komissiyalarini optimallashtirish — banklar va to'lov tizimlari o'rtasida raqobatni kuchaytirish orqali xizmat narxlarini kamaytirish.

3. Raqamli savodxonlikni oshirish — tadbirkorlar, kassirlar va xodimlar uchun doimiy o'quv kurslarini tashkil etish hamda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish.

4. Zaxira tizimlari va texnik monitoringni joriy etish — POS terminallar va to'lov platformalarining uzluksiz ishlashini kafolatlaydigan tizimlarni yaratish.

5. Innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish — blokcheyn, sun'iy intellekt va biometrik autentifikatsiya texnologiyalarini kiritish orqali xavfsizlikni kuchaytirish.

Xulosa qilib aytganda, elektron to'lov tizimlari va POS texnologiyalari kichik biznesning raqamli transformatsiyasini tezlashtiruvchi, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlovchi va moliyaviy intizomni kuchaytiruvchi zamonaviy mexanizm sifatida shakllanmoqda. Ushbu tizimlardan oqilona va xavfsiz foydalanish orqali nafaqat kichik biznes rentabelligi, balki butun mamlakat iqtisodiy o'sishining barqarorligi ta'minlanadi. Shu bois, elektron to'lov tizimlari rivoji O'zbekistonning "Raqamli iqtisodiyot – 2030" strategik maqsadlariga erishishda muhim omil sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4851-son qarori, 2020-yil 5-oktabr. "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida". — <https://lex.uz/docs/5032128>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079-son Farmoni, 2020-yil 5-oktabr. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida. — <https://lex.uz/docs/5030957>
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Elektron to'lovlar bo'yicha yillik statistik hisobot. Toshkent, 2024.
4. Karimov, A. (2023). Kichik biznesda raqamli texnologiyalarni joriy etish masalalari. Toshkent: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti nashriyoti.
5. Valiyev, J., & Kotane, I. (2024). "Enhancing the Payment System in Uzbekistan." Regional Economy and Social Development Journal, 16, 55–68.
6. Akhmedova, S. (2022). "Cybersecurity Risks in Small Business Payment Systems." Journal of Digital Finance, 8(2), 45–59.
7. Rasulova, N. (2024). "Mobil to'lov tizimlarining kichik biznesdagi iqtisodiy ta'siri." O'zbekiston moliya jurnali, 3(87), 87–95.
8. Bank for International Settlements (BIS). (2023). Digital Payments, Informality and Economic Growth. BIS Working Paper No. 1196.
9. Sahi, A. M., Khalid, H., & Abbas, A. F. (2021). "Digital Payment Adoption: A Review (2015–2020)." Journal of Management Information and Decision Sciences, 24(7), 1–9.
10. Singh, S. N., & Mishra, P. (2022). "Impact of Digital Payment Adoption on SMEs in India." International Journal of Business and Economics, 19(4), 77–90.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>